	Kelajak pedagog shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining psixologik ta'siri... 793 M. B. Pulatova
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida inson resurslarini boshqarish tushunchasining ilmiy-nazariy tahlili ..... 796 Maraimova Muxtabar Pulatovna
	Kredit-modul modeli asosida kreativ ta'lim muhitini yaratish omillari va imkoniyatlari..... 801 Xalkuziyeva Dilnoza Baxodirovna



Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan pedagogik texnologiya modeli .....	805
<i>G'aniyeva Vazira Yusufvna</i>	
Xorijiy va mahalliy tajribada prognostik madaniyatni shakllantirish yondashuvlari .....	809
<i>Ziyoda Urinbayeva</i>	
The Role of Tolerance in the Professional Activities of Internal Affairs Bodies .....	813
<i>Toshpo'latov Anvar Shokir o'g'li</i>	
O'quvchilarni milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda sharq mutaffakirlari merosidan foydalanish .....	818
<i>Eshquvvatov To'liqinjon Eshquvvatovich, Buronova Durdona Erkin qizi</i>	
Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar orqali integrativ faoliyatlarni tashkil etish .....	822
<i>Kubayeva Mavluda Baxtiyor qizi</i>	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari .....	826
<i>Mirzaqobilova Sarvinoz Aliqul qizi</i>	
Zamonaviy jamiyatda ekologik mediamadaniyatni shakllantirish masalalari .....	832
<i>Marziyayev Janabay Kalibayevich</i>	
Alisher Navoiyning "Mahlub ul-qulub" asari asosida o'quvchilarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish .....	836
<i>Karamatova Dilfuza Sadinovna, Mahmudova Niginabonu Mizrof qizi, Ravshanova Mohinur O'tkir qizi</i>	
Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy karyera loyihalash ko'nikmalarini shakllantirish .....	840
<i>Djalolova Sevara Xolmurodovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalar ....	845
<i>G'ulomova Dildora Shoirvna</i>	
Rus tilini o'qitishda grammatik kompetensiyani kommunikativ metod yordamida shakllantirish: qoidalardan jonli muloqotga o'tish metodikasi .....	850
<i>Arabova Muhiba Bazarovna</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy kompetentligini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida takomillashtirishning pedagogik muammo va ehtiyojlari .....	854
<i>Axrorova Munajat Mashraf qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy tafakkur ko'nikmalarini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari .....	858
<i>Azizjonova Asilabonu Alisher qizi</i>	
Ta'limda innovatsion yondashuvlarning pedagogik-psixologik asoslari (pedagogik otm misolida).....	862
<i>Begmatova Dildora Saydaliyevna</i>	
Developing the Creativity of Primary School Students Through Art-Pedagogical Methods .....	866
<i>Dauletmuratova Bayramgul Makhsetbay kizi</i>	
Tabiiy fanlar darslarida kreativ ta'lim muhitini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish yo'llari .....	871
<i>Farmanova Parvina Jamshid qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida arifmetik ko'nikmalarni mustahkamlash: zamonaviy ta'limdagi innovatsion yondashuvlar.....	875
<i>Izimbetova Amina</i>	
Matematika va o'yinlar nazariyasi: strategik qarorlarni modellashtirishda rivojlanish bosqichlari va amaliy ahamiyati.....	878
<i>Jumanazarova Shahzada</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish faoliyatini rivojlantirishning ilmiy nazariy asoslari .....	881
<i>Laylo Berdiqulova Erkin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini integrativ yondashuv asosida o'stirish usullari.....	885
<i>Mamatraimova Dilshoda Chorshanbiyevna, Normengliyeva Sevinch Ulug'bek qizi</i>	
STEAM texnologiyasi vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirish tamoyillari ....	889
<i>Nazirova Guzal Malikovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda maishiy ko'nikmalarni takomillashtirishning ilmiy nazariy asoslari.....	893
<i>Saydaliyeva Gavhar Burxon qizi</i>	



Fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish .....	896
<a href="#">Sobirov Avazbek Anvarovich</a>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ayrim emotsional holatlar (injiqlik va emotsional reaktivlik)ni boshqarish.....	903
<a href="#">Sultonova Nurxon Anvarovna</a>	
Teatr pedagogikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish modeli va metodlari .....	907
<a href="#">Tolipova Shohista Quadrat qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional intellektni rivojlantirishda didaktik o'yinlarning roli .....	911
<a href="#">Turg'unova Gulzoda Botir qizi</a>	
Farzand tarbiyasida onaning psixologik va axloqiy ta'sirining amaliy jihatlari .....	916
<a href="#">Tuxtaboyeva Durdonaxon Tulkunovna</a>	
Ontogenezning turli bosqichlarida shaxsning axloqiy rivojlanish xususiyatlari .....	919
<a href="#">Umaraliyev Muzaffarjon Muhammadjon o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zlashtirishini metakognitiv monitoring qilish va baholashning nazariy-metodik asoslari .....	923
<a href="#">Xalikova Zaxro Mirshadmanovna</a>	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining psixologiyada qo'llanilishi .....	927
<a href="#">Yoqubova Gulhayo Erkin qizi</a>	
Maktabgacha ta'lim muassasalarida sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari .....	931
<a href="#">Bilolov Inomjon O'ktamovich</a>	
Karatening kelib chiqish tarixi .....	934
<a href="#">Isayev Saidasliddinxon Islom o'g'li</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ faollikni shakllantirishga doir usul va vositalar .....	937
<a href="#">Nishonova Kamola Shokirjon qizi, Mamadjonova Hayotxon Abdulolim qizi</a>	
Родительские установки и развитие личности .....	941
<a href="#">Кодирова Нилуфар Абдусаттор кизи</a>	

# FIZIKA FANINI O'QITISHDA FORMATIV BAHOLASH ASOSIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Sobirov Avazbek Anvarovich

Andijon shahridagi Prezident maktabi  
Maxsus fanlar bo'yicha direktor o'rinbosari,  
Farg'ona davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining 10–11-sinflarida fizika fanini o'qitishda formativ baholash texnologiyalaridan foydalanish orqali o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinib, formativ baholash asosida metodik yondashuv taklif etilgan. Tajriba-sinov natijalari ushbu metodikaning samaradorligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** formativ baholash, tanqidiy fikrlash, fizika ta'limi, kompetensiya, metodika.

**Abstract:** This article discusses the development of critical thinking skills of 10–11-grade students in physics education based on formative assessment technologies. The study analyzes modern pedagogical approaches and proposes a methodology for developing critical thinking through formative assessment. The results of the experimental study demonstrate the effectiveness of the proposed methodology in improving students' independent thinking and learning activity.

**Key words:** formative assessment, critical thinking, physics education, competence, methodology.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются вопросы развития критического мышления учащихся 10–11 классов общеобразовательных школ в процессе обучения физике на основе технологий формативного оценивания. В ходе исследования были проанализированы современные педагогические подходы, а также предложена методика развития критического мышления с использованием формативного оценивания. Результаты экспериментальной работы показали эффективность предложенной методики в повышении уровня самостоятельного мышления и учебной активности учащихся.

**Ключевые слова:** формативное оценивание, критическое мышление, обучение физике, компетенции, методика.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv va axborotlashuv jarayonlari sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy vazifalardan biri – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, asosli qaror qabul qilish hamda turli axborot manbalarini tanqidiy baholay olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyatda shunchaki bilimga ega bo'lish yetarli emas, balki ushbu bilimlardan samarali foydalanish, ularni tahlil qilish va yangi vaziyatlarga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Fizika fani o'zining mazmuni jihatidan mantiqiy fikrlash, sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlash, tajriba natijalarini tahlil qilish va xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu esa o'quvchilarda chuqur va tizimli fikrlashni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi.

An'anaviy baholash tizimi asosan o'quvchilarning bilim darajasini yakuniy natija asosida aniqlashga qaratilgan bo'lib, ularning fikrlash jarayonini yetarlicha aks ettirmaydi. Bunday yondashuv o'quvchilarning faqatgina reproduktiv bilimlarini baholashga xizmat qiladi va ularning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli ta'lim jarayoniga o'quvchilarning o'rganish jarayonini doimiy kuzatib borishga, ularni faol ishtirok etishga undovchi va fikrlash faoliyatini rag'batlantiruvchi zamonaviy baholash usullarini joriy etish zarurati yuzaga kelmoqda. Formativ baholash ana shunday zamonaviy yondashuvlardan biri



bo'lib, u o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi. Formativ baholash o'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida uzluksiz aloqa (feedback)ni ta'minlaydi. Ushbu yondashuv orqali o'quvchilarning xatolari aniqlanadi, ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi va natijada o'quv jarayoni samaradorligi oshadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda ta'lim tizimida baholash jarayonini takomillashtirish va uni o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirish masalalari dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, formativ baholashning ta'lim samaradorligini oshirishdagi roli ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Formativ baholash nazariy asoslari ilk bor G'arb olimlari tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ichida Black va Wiliam (1998) tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Ular o'z ishlarida formativ baholashni o'quv jarayoniga integratsiya qilish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslab berganlar. Mualliflarning ta'kidlashicha, samarali formativ baholash o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muntazam teskari aloqa (feedback) orqali amalga oshiriladi va bu jarayon o'quvchilarning o'z bilimlarini anglashiga xizmat qiladi.

Shuningdek, Sadler <sup>[3, 114-bet]</sup> tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, formativ baholash samarali bo'lishi uchun o'quvchilar baholash mezonlarini tushunishi, o'z natijalarini ushbu mezonlar asosida tahlil qila olishi va kamchiliklarini bartaraf etish yo'llarini bilishi zarur. Bu yondashuv o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi, bu esa tanqidiy fikrlashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Hattie <sup>[4, 392-bet]</sup> o'zining "Visible Learning" tadqiqotida baholashning turli shakllari ichida aynan formativ baholash o'quv natijalariga eng yuqori ta'sir ko'rsatishini aniqlagan. Uning fikricha, o'qituvchining o'z vaqtida berilgan sifatli feedbacki o'quvchilarning o'rganish jarayonini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish masalasi ham ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan.

Ennis <sup>[11, 40-bet]</sup> tanqidiy fikrlashni asosli qaror qabul qilishga qaratilgan mantiqiy va refleksiv fikrlash jarayoni sifatida ta'riflaydi.

Facione <sup>[12, 25-bet]</sup> esa tanqidiy fikrlashni tahlil qilish, baholash, xulosa chiqarish va o'z fikrini asoslash kabi kognitiv ko'nikmalar majmui sifatida izohlaydi.

Zamonaviy ta'lim konsepsiyalarida, xususan, OECD <sup>[9-10-betlar]</sup> tomonidan ishlab chiqilgan "Education 2030" dasturida ham tanqidiy fikrlash asosiy tayanch kompetensiyalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu hujjatda o'quvchilarning murakkab muammolarni hal qila olish qobiliyatini rivojlantirish ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida ko'rsatib o'tilgan.

Mahalliy olimlar tomonidan ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, baholash tizimini takomillashtirish va o'quvchilarning fikrlash faoliyatini rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Biroq mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, fizika fanini o'qitishda aynan formativ baholash asosida tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan kompleks metodik yondashuv yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Xususan, fizika fanining o'ziga xos xususiyatlari – eksperimentlarga asoslanganligi, nazariy va amaliy bilimlarning uyg'unligi, mantiqiy tahlil va sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashga yo'naltirilganligi – formativ baholashni samarali qo'llash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Biroq amaliyotda ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. Shu bois fizika ta'limida formativ baholashni tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish bilan integratsiyalashgan holda qo'llashga qaratilgan metodikani ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot umumta'lim maktablarining 10-11-sinflarida fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot pedagogik eksperiment shaklida tashkil etildi. Unda taqqoslash usuli asosida nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirildi. Tajriba guruhi uchun formativ baholash asosida ishlab chiqilgan metodika joriy etildi, nazorat guruhida esa an'anaviy o'qitish usullari qo'llanildi.

Tadqiqotda umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari ishtirok etdi. Umumiy hisobda 2 ta guruh shakllantirilib:

- tajriba guruhi – 25-30 nafar o'quvchi;
- nazorat guruhi – 25-30 nafar o'quvchi.

Guruhlar bilim darajasi, o'zlashtirish ko'rsatkichlari va yosh xususiyatlari bo'yicha tenglashtirildi.



1-rasm: Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari

Tadqiqotda quyidagi ilmiy-pedagogik metodlardan foydalanildi:

- pedagogik kuzatish – o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi va fikrlash faoliyatini aniqlash;
- so'rovnomalar – o'quvchilarning o'z fikrini baholash va refleksiya qilish darajasini aniqlash;
- test sinovlari – bilim va ko'nikmalar darajasini aniqlash;
- pedagogik eksperiment – metodikaning samaradorligini aniqlash;
- taqqoslash tahlili – tajriba va nazorat guruhlarini natijalarini solishtirish.

Tadqiqot jarayonida quyidagi formativ baholash usullari qo'llanildi:

- ochiq savollar (analitik fikrlashni rivojlantirish uchun); muammoli masalalar; o'zaro baholash (peer assessment);
- o'zini baholash (self-assessment); tezkor refleksiya (exit ticket, mini-yozma fikrlar).

Bu vositalar o'quvchilarning fikrlash jarayonini aniqlash va rivojlantirishga xizmat qildi.



2-rasm: O'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarining baholanishi

## TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir mezon 3 daraja (past, o'rta, yuqori) bo'yicha baholandi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, quyidagi ko'rsatkichlar aniqlandi:

- foiz ko'rsatkichlari;
- o'rtacha qiymatlar;
- tajriba va nazorat guruhlarini o'rtasidagi farq.



Natijalarning ishonchligini aniqlash uchun Student t-mezonidan foydalanildi. Taklif etilgan metodika quyidagi asosiy g'oyaga asoslanadi: "Baholash – bu faqat nazorat emas, balki o'rganish vositasidir". Shu asosda fizika darslarida formatif baholash o'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil tahlil qilishga undash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiluvchi vosita sifatida qo'llanildi. Fizika fanini o'qitishda formatif baholashni samarali tashkil etish o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biridir.

Zamonaviy ta'lim tizimlarida, xususan, Cambridge Assessment yondashuvida baholash o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida qaralib, u o'quvchilarning bilimlarini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Cambridge tizimida formatif baholash quyidagi asosiy tamoyillarga asoslanadi:

- o'quv maqsadlarining aniqligi (Learning objectives);
- baholash mezonlarining ochiqligi (Success criteria);
- doimiy teskari aloqa (Feedback);
- o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirish.

Mazkur tamoyillar fizika darslarida qo'llanilganda, o'quvchilarning nafaqat bilim darajasi, balki ularning fikrlash jarayoni ham rivojlanadi.

1. **O'quv maqsadi va baholash mezonlari asosida fikrlashni rivojlantirish.** Cambridge yondashuvida har bir dars aniq maqsadlar asosida tashkil etiladi. Fizika darslarida, masalan, "Nyuton qonunlarini tushuntirish" emas, balki "Nyuton qonunlarini real hayotiy vaziyatlarda qo'llash va tahlil qilish" kabi maqsadlar qo'yiladi. Baholash mezonlari o'quvchilarga oldindan e'lon qilinadi, bu esa ularni o'z faoliyatini tahlil qilishga undaydi. Natijada o'quvchilar: nima o'rganayotganini tushunadi; qanday natijaga erishishi kerakligini biladi; o'z ishini mustaqil baholay oladi. Bu esa tanqidiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi.
2. **Savol berish strategiyalari (Effective questioning).** Cambridge tizimida savol berish alohida ahamiyatga ega. Oddiy yopiq savollar o'rniga yuqori darajali savollar qo'llaniladi: "Nima uchun?"; "Qanday isbotlaysan?"; "Agar sharoit o'zgarsa, nima bo'ladi?". Masalan, fizika darsida: "Nima uchun og'ir jism tezroq tushadi degan fikr noto'g'ri?". Bunday savollar o'quvchilarni: tahlil qilishga; solishtirishga; xulosa chiqarishga majbur qiladi va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.
3. **Feedback (teskari aloqa) orqali fikrlashni chuqurlashtirish.** Cambridge yondashuvida feedback bahoning o'rnini egallaydi. Ya'ni o'qituvchi shunchaki "to'g'ri/noto'g'ri" demaydi, balki: xatoni ko'rsatadi; yaxshilash yo'lini aytadi; keyingi qadamni belgilaydi. Masalan: "Noto'g'ri ishlading" emas, balki: "Sen formulani to'g'ri tanlading, lekin birliklarni hisobga olmading. Agar birliklarni tekshirsang, natijang to'g'ri chiqadi". Bu yondashuv o'quvchining fikrlash jarayonini rivojlantiradi va uni xatodan o'rganishga o'rgatadi.
4. **O'zaro baholash (Peer assessment).** O'quvchilar bir-birining ishini baholaganda, ular: mezonlar asosida fikr yuritadi; xatolarni aniqlaydi; dalillar bilan fikr bildiradi. Masalan, laboratoriya ishida bir o'quvchi boshqasining natijasini tahlil qiladi va baholaydi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning quyidagi elementlarini rivojlantiradi: tahlil; baholash; asoslash.
5. **O'zini baholash (Self-assessment) va refleksiya.** Cambridge tizimida o'quvchilar o'z bilimlarini baholashga o'rgatiladi. Dars oxirida quyidagi savollar beriladi: Men bugun nimani o'rgandim? Qaysi joyda qiynaldim? Qanday yaxshilashim mumkin? Bu refleksiya jarayoni o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi va tanqidiy fikrlashni mustahkamlaydi.
6. **Muammoli vaziyatlar va real hayotiy topshiriqlar.** Cambridge yondashuvida topshiriqlar real hayot bilan bog'lanadi. Fizika darslarida quyidagi turdagi topshiriqlar qo'llaniladi: "Nima uchun samolyot uchadi?"; "Nima sababdan muz ustida yurish qiyin?"; "Energiya tejalishini qanday tushuntirasan?". Bunday topshiriqlar o'quvchilarni: sabab-oqibatni tushunishga; nazariyani amaliyotga qo'llashga; mustaqil fikrlashga o'rgatadi.
7. **Formativ baholash asosida metodik model.** Tadqiqot davomida quyidagi metodik model ishlab chiqildi: Ma'lumot berish → Savol → Muhokama → Feedback → Refleksiya → Tuzatish. Ushbu model fizika darslarida o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning fikrlash jarayonini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiladi.

Cambridge Assessment yondashuvi asosida tashkil etilgan formatif baholash fizika darslarida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Ushbu yondashuv o'quvchini passiv bilim oluvchidan faol tahlil qiluvchi subyektga aylantiradi.

Mazkur tadqiqot doirasida formativ baholash asosida ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tadqiqot natijalari tajriba va nazorat guruhlarida kesimida tahlil qilindi. Tajriba boshlanishidan oldin har ikkala guruh o'quvchilarining bilim darajasi va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki:

- har ikkala guruhda ko'rsatkichlar deyarli bir xil;
- o'quvchilarning aksariyati reproduktiv darajada fikrlagan;
- tanqidiy fikrlash elementlari (tahlil, asoslash, xulosa chiqarish) yetarli darajada rivojlanmagan.

Bu esa tajriba o'tkazish uchun boshlang'ich sharoitlarning tengligini ta'minladi. Nazorat guruhida esa asosan an'anaviy metodlar qo'llanilganligi sababli bunday o'zgarishlar kamroq kuzatildi. Tajriba yakunida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalari qayta baholandi. Natijalar quyidagi tendensiyani ko'rsatdi:

1-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarida tanqidiy fikrlash darajasining o'zgarishi**

Guruh	Daraja	Dastlabki (%)	Yakuniy (%)	O'zgarish (%)
Tajriba guruhi	Yuqori	20	45	+25
	O'rta	35	40	+5
	Past	45	15	-30
Nazorat guruhi	Yuqori	22	28	+6
	O'rta	33	38	+5
	Past	45	34	-11

Tajriba va nazorat guruhlarida natijalari solishtirilganda quyidagilar aniqlandi: tajriba guruhida yuqori darajaga erishganlar soni sezilarli oshdi; past darajadagi o'quvchilar keskin kamaydi; nazorat guruhida esa o'zgarishlar sust bo'ldi. Bu holat formativ baholashning samaradorligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlarida o'rtasidagi farqning ishonchligi tekshirildi. Bu esa tajriba natijalari statistik jihatdan ishonchli ekanligini ko'rsatadi.

2-jadval: **Tajriba va nazorat guruhlarida natijalarining statistik tahlili**

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
O'rtacha ball (dastlabki)	3.1	3.0
O'rtacha ball (yakuniy)	4.2	3.4
O'sish ( $\Delta$ )	+1.1	+0.4
Dispersiya ( $S^2$ )	0.36	0.41
Student t-hisob	2.45	-
t-jadval ( $p < 0.05$ )	2.01	-
Natija	Ishonchli	-

Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, formativ baholash:

- o'quvchilarning fikrlash jarayonini faollashtiradi;
- bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi;
- o'quvchini faol subyektaga aylantiradi;
- xatodan o'rganish madaniyatini shakllantiradi.

Ayniqsa, feedback va refleksiya elementlari tanqidiy fikrlash rivojida muhim rol o'ynadi. Tadqiqot davomida quyidagi muhim jihatlardan aniqlandi:

- o'quvchilar baholash jarayonida faol bo'lsa, natija yuqori bo'ladi;
- ochiq savollar fikrlashni eng kuchli rivojlantiruvchi vosita hisoblanadi;
- o'zaro baholash o'quvchilarda mas'uliyatni oshiradi;
- formativ baholash muntazam bo'lsa, samaradorlik ortadi.



Olingan natijalar formativ baholash asosida tashkil etilgan fizika darslari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi va taklif etilgan metodikaning samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi. Mazkur tadqiqot natijalari fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish samarali ekanligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar mavjud ilmiy nazariyalar va ilgari olib borilgan tadqiqotlar bilan uyg'un holda tahlil qilindi. Tajriba natijalariga ko'ra, formativ baholash joriy etilgan tajriba guruhida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Bu holat Black va Wiliam tomonidan ilgari surilgan formativ baholashning o'quv natijalariga ijobiy ta'siri haqidagi nazariy qarashlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Ayniqsa, muntazam feedback berish va o'quvchini baholash jarayoniga jalb etish orqali bilimlarning chuqurroq o'zlashtirilishi ta'minlandi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, formativ baholash vositalari ichida ayniqsa quyidagilar yuqori samaradorlik ko'rsatdi: ochiq savollar, muammoli vaziyatlar va o'zaro baholash. Bu natija Facione <sup>[12,25]</sup> tomonidan ta'riflangan tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlari – tahlil qilish, baholash va xulosa chiqarish – aynan shu faoliyatlar orqali rivojlanishini tasdiqlaydi. Shuningdek, o'quvchilarning refleksiya faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zini baholash va o'z fikrini tahlil qilish jarayonida o'quvchilarda metakognitiv ko'nikmalar shakllanib, bu esa tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bu natijalar Sadler <sup>[3,114]</sup> tomonidan ilgari surilgan o'quvchilarning baholash mezonlarini anglash va o'z faoliyatini nazorat qilish zarurati haqidagi g'oyalar bilan mos keladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy baholash tizimidan farqli ravishda, formativ baholash o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning fikrlash jarayonini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Nazorat guruhida asosan reproduktiv bilimlar ustunlik qilgan bo'lsa, tajriba guruhida analitik va tanqidiy yondashuv sezilarli darajada rivojlangan. Biroq tadqiqot jarayonida ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, o'qituvchilarning formativ baholash metodlarini to'liq bilmasligi yoki uni noto'g'ri qo'llashi samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, dars vaqtining cheklanganligi barcha o'quvchilar bilan individual ishlash imkoniyatini kamaytiradi. Bu esa metodikani keng joriy etishda tashkiliy va metodik qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Natijalar shuni ko'rsatdiki, formativ baholashni samarali qo'llash uchun quyidagi shartlar muhim: o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi; aniq baholash mezonlarining mavjudligi; o'quvchilarning faol ishtiroki; doimiy va sifatli feedback. Mazkur omillar ta'minlanganda, formativ baholash fizika ta'limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasiga aylanadi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari xalqaro baholash tizimlari, xususan, Cambridge yondashuvi bilan hamohang ekanligi aniqlandi. Cambridge tizimida qo'llaniladigan baholash strategiyalari – ochiq savollar, refleksiya va o'zaro baholash – mazkur tadqiqot natijalarida ham yuqori samaradorlikni ko'rsatdi.

Umuman olganda, olingan natijalar formativ baholashni fizika ta'limiga tizimli ravishda joriy etish zarurligini asoslaydi hamda uni o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida qarash mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari umumta'lim maktablarining 10–11-sinflarida fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasining samaradorligini ilmiy asosda tasdiqladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari Cambridge Assessment yondashuvi bilan uyg'un ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, ochiq savollar, sifatli feedback, refleksiya va o'zaro baholash kabi elementlar fizika darslarida yuqori samaradorlikni ko'rsatdi. Bu esa xalqaro tajribani milliy ta'lim tizimiga moslashtirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi.

Tadqiqot asosida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

- formativ baholash fizika ta'limida tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi;
- tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish uchun baholash jarayonini o'qitish jarayoni bilan integratsiyalash zarur;
- o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi baholash usullari yuqori natija beradi;
- feedback va refleksiya o'quvchilarning bilim sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur natijalar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

- fizika darslarida formativ baholash elementlarini muntazam qo'llash;
- o'qituvchilarni formativ baholash metodikasi bo'yicha tayyorlash;
- baholash mezonlarini aniq va tushunarli shaklda ishlab chiqish;

- o'quvchilarda o'zini baholash va refleksiya ko'nikmalarini shakllantirish;
- dars jarayonida muammoli vaziyatlar va ochiq savollardan keng foydalanish.

Shu bilan birga, tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, tadqiqot ma'lum bir maktab doirasida olib borilganligi sababli, natijalarni umumlashtirishda ehtiyotkorlik zarur. Kelgusida ushbu metodikani kengroq miqyosda sinovdan o'tkazish va uni turli ta'lim sharoitlariga moslashtirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot fizika fanini o'qitishda formativ baholash asosida o'quvchilarning tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini boyitadi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi samarali metodik yondashuvni taklif etadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education. – 1998. – Vol. 5, No. 1. – P. 7-74.
2. Wiliam D. Embedded Formative Assessment. – Bloomington: Solution Tree Press, 2011. – 184 p.
3. Sadler D.R. Formative Assessment and the Design of Instructional Systems // Instructional Science. – 1989. – Vol. 18. – P. 119-144.
4. Hattie J. Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement. – London: Routledge, 2009. – 392 p.
5. Brookhart S.M. How to Give Effective Feedback to Your Students. – Alexandria: ASCD, 2008. – 121 p.
6. Nicol D.J., Macfarlane-Dick D. Formative Assessment and Self-Regulated Learning // Studies in Higher Education. – 2006. – Vol. 31(2). – P. 199-218.
7. Heritage M. Formative Assessment: Making It Happen in the Classroom. – Thousand Oaks: Corwin Press, 2010. – 160 p.
8. Bennett R.E. Formative Assessment: A Critical Review // Assessment in Education. – 2011. – Vol. 18(1). – P. 5-25.
9. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018.
10. OECD. PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. – Paris: OECD Publishing, 2019.
11. Ennis R.H. Critical Thinking. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996.
12. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – Insight Assessment, 2011.
13. Halpern D.F. Thought and Knowledge: An Introduction to Critical Thinking. – New York: Psychology Press, 2014.
14. Paul R., Elder L. Critical Thinking: Tools for Taking Charge of Your Learning. – Pearson, 2013.
15. Brookfield S.D. Teaching for Critical Thinking. – San Francisco: Jossey-Bass, 2012.
16. Redish E.F. Teaching Physics with the Physics Suite. – Wiley, 2003.
17. Knight R.D. Five Easy Lessons: Strategies for Successful Physics Teaching. – Addison-Wesley, 2004.
18. McDermott L.C., Redish E.F. Resource Letter: PER-1 Physics Education Research // American Journal of Physics. – 1999.
19. Hake R.R. Interactive-Engagement vs Traditional Methods // American Journal of Physics. – 1998.
20. Meltzer D.E., Thornton R.K. Resource Letter ALIP-1: Active Learning in Physics // American Journal of Physics. – 2012.
21. Cambridge Assessment International Education. Getting Started with Assessment for Learning. – Cambridge, 2015.
22. Cambridge International. Assessment for Learning in the Classroom. – Cambridge University Press, 2017.
23. Cambridge Assessment. Principles of Assessment for Learning. – Cambridge, 2018.
24. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasini rivojlantirishga oid qarorlari. – Toshkent, 2019-2023.
26. O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti (fizika fani). – Toshkent, 2021.
27. Uzluksiz ta'lim tizimida kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent, 2020.
28. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2017.
29. Tolipov O., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2016.
30. Yuldashev J., Usmonov S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent, 2018.
31. Qurbonov Sh. Fizika o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2019.
32. Xoliqov A. Ta'limda baholash metodlari. – Toshkent, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №3(2)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.